

**ADABIY TUR VA JANRLARNING NAZARIY ASOSLARI VA TASNIFI****Muhammadova Nigora Dilmurod qizi**

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Electron pochta: @Dilmurodovna0406

Telefon raqam: 91 885 95 11

**Barziyev Oybek Xabibullayevich**

Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari doktori ( PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20093780>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiy tur va janr tushunchalarining nazariy asoslari keng yoritilgan. Adabiyotshunoslikda epik, lirik va dramatik turlar hamda ularning ichki janr tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, janrlarning tarixiy shakllanishi, o‘zgaruvchanligi va badiiy asar mazmunini ifodalashdagi o‘rni misollar asosida izohlangan. Maqola davomida o‘zbek va jahon adabiyoti namunalariga murojaat qilinib, adabiy tasnifning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy tur, janr, epik tur, lirik tur, dramatik tur, roman, she‘r, tragediya, adabiyotshunoslik

**Annotation:** This article explores the theoretical foundations of literary types and genres. It analyzes the main literary types—epic, lyric, and dramatic—and their internal genre systems from a scholarly perspective. The historical development and transformation of genres, as well as their role in expressing the content of literary works, are explained with examples. The study also refers to Uzbek and world literature to highlight the importance of literary classification.

**Keywords:** literary type, genre, epic, lyric, drama, novel, poetry, tragedy, literary studies

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические основы литературных родов и жанров. Анализируются основные литературные роды — эпос, лирика и драма, а также их жанровая система. Особое внимание уделяется историческому развитию жанров и их роли в раскрытии содержания художественного произведения. Приводятся примеры из узбекской и мировой литературы.

**Ключевые слова:** литературный род, жанр, эпос, лирика, драма, роман, поэзия, трагедия, литературоведение

Adabiyot inson tafakkuri va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim san‘at turlaridan biridir. Adabiy asarlarni tizimli o‘rganish uchun ularni ma‘lum mezonlar asosida tasniflash zarur. Shu jihatdan adabiy tur va janr tushunchalari adabiyotshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Adabiy tur - bu badiiy asarlarning umumiy xususiyatlariga ko‘ra yirik guruhlariga ajratilishi bo‘lsa, janr esa shu tur ichidagi aniq shakllarni bildiradi. So‘z san‘atida uch tur ham inson aql-tafakkurining o‘ziga xos yaratuvchanligiga maxsulidur. Ular inson dunyosini so‘zda suratlantrish, namoyon etish borasida uzoq izlanishlar oqibatida erishiladigan natijadir. Adabiy asarlar shakl jihatdan benihoya rang-barang bo‘ladi. Shuning uchun ularni alohida-alohida guruhlariga ajratib o‘rganish kerak. Adabiy asarlar shaklan quydagicha tasnif qilinib o‘rganilishi maqsadga muvofiq: adabiy asarlarning guruhlari adabiy tur, adabiy turning ichki guruhlari adabiy tur shakllari, adabiy shaklning ichki guruhlari adabiy janrlar. Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustahkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (er.av. 384–322 yillar) “Poetika” asarida so‘z san‘ati asarlarini uch tur – epos, lirika, dramaga bo‘lib

sharhlaydi. “Epos” roman, qissa, hikoya, “lirika” g‘azal, tuyuq, ruboiy, “drama” komediya, tragediya, drama janrlarini umumlashtiradi. Ya’ni mazkur adabiy turlar ana shunday qismlardan tarkib topgan bo‘ladi. Epos, lirika, dramani tashkil etuvchi ana shunday qismlar “janr” deb yuritiladi.

Adabiy turlar bir-biridan, avvalo, voqelikni gavdalantirish tarziga ko‘ra farqlanadi. Eposga mansub asarlar ko‘pincha bo‘lib o‘tgan voqealarni ko‘rsatayotganday tasavvur uyg‘otsa, lirik turga oid asarlar ayni chog‘da bo‘lib o‘tayotgan voqealarni gavdalantirayotganday tasavvur yaratadi. Drama asarlarida esa voqealar xuddi hozir bo‘lib o‘tayotganday bo‘lib ko‘rinadi.

Biroq eposga xos xususiyatlar ma‘lum darajada lirik asarda yoki komediya, drama, tragediyada ham mavjud bo‘ladi. Yoki lirikaga xos xususiyatlar roman, qissa, hikoya yoki drama asarlarida namoyon bo‘ladi. Dramaning xos belgilari esa epos, lirikada ham ko‘rinadi. Chunki adabiy turlar bir-biri bilan mustahkam aloqador, mushtarak hodisa sanaladi. Ularning tasvir ob’ekti ham, mavzusi ham yagona – insondir. Adabiy turlarga mansub janrlar ana shu ob’ektni har xil ko‘rinishda gavdalantiradi, xolos.

Epos (roman, qissa, hikoya) voqeani, lirika insonning ruhiy holat, kechinmasini, drama kishining xarakterini gavdalantiradi, degan qarash keng yoyilgan. Biroq roman, qissa, hikoyada ham insonning ruhiy holati, kechinmalari ko‘rsatiladi. She’riy asarlarda ma‘lum voqealar bayon etiladi. Drama asarlarida ham qahramonning kayfiyati, qalbidagi alg‘ov-dalg‘ovlar jarayoni akslanadi.

Albatta, epos, lirika, drama o‘rtasida jiddiy farqlar mavjud. Epos so‘zlashuv nutqiga yaqin bir tarzda ezilsa, lirika misra, qofiya, turoq singari unsurlarga asoslangan, drama dialog, monologlardan tarkib topgan bo‘ladi.

“Janr” fransuzcha so‘z bo‘lib, “tur”, “jins” degan ma‘noni anglatadi. Bu termin dastlab san‘at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Fransiyada qo‘llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompozitsion ko‘rinishi, tasvirlash yo‘llari, vositalari, bayon usullari, xususiyatlari kabi omillarga ko‘ra farqlanadi. Janr o‘zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda u ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy taraqqiyot jarayonida iste‘moldan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

“Epos” deganda hozir nasriy asarlar tushuniladi. Roman, qissa, hikoya, masal, ertak kabi janrlar epik turga mansub asarlar deyiladi. Epos yunoncha “epos” so‘z bo‘lib, “so‘z”, “nutq”, “hikoya” degan ma‘noni anglatadi. Bu atama keng va tor ma‘noda qo‘llaniladi. Epos keng ma‘noda voqeaband asardir. Bundan tashqari, she’riy yo‘lda yozilgan asar ham epos bo‘lishi mumkin. Voqealarni hikoya qilish ustuvor bo‘lgan eposda hodisalarni bayon etish shakli va usullari davr o‘tishi bilan o‘zgarib, boyib borgan. Qadimgi epik asarlarda voqealar o‘tgan zamon shaklida ifodalangan bo‘lsa, hozirgi roman, qissa, hikoyalarda voqealar o‘tgan zamonda boshlanib, ayni paytda ham davom etayotganday yoki yana boshqacha tarzda ifodalanadi. Epik asarlar voqealarni aks ettirish jihatidagina emas, balki inson ruhiy olamini chuqur tahlil qilish bilan ham yangi imkoniyatlarni namoyon etmoqda.

Epos tor ma‘noda xalq ijodiyotiga mansub yirik hajmli asarlardir. O‘zbek xalq dostonlari ham epik asardir. Xalq eposi mavzusi, voqealarni talqin qilishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan: qahramonlik eposi, tarixiy epos, romantik epos, jangnoma va boshqalar. Bu asarlar keng syujetli, dramatik voqealarga boy bo‘ladi. Xalq eposida real voqelik badiiy to‘qima, xayoliy tasavvurlar bilan qorishiq holda ko‘rinadi.

Epik turga mansub janrlar orasida eng salmoqlisi romandir. Roman janri XIX asr oxirlaridan boshlab, milliy adabiyotlarning mavqeini belgilaydigan adabiy mezonga aylandi. Roman aslida fransuzcha soʻzdir.

Adabiy tur va janrlar adabiyotshunoslikning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida badiiy asarlarni chuqurroq anglash va tahlil qilish mumkin. Epik, lirik va dramatik turlar adabiyotning asosiy yoʻnalishlarini tashkil etadi, janrlar esa ushbu turlarni yanada aniqroq shakllarga ajratadi.

Zamonaviy adabiyotda janrlar oʻzaro uygʻunlashib, yangi shakllar paydo boʻlayotgani kuzatilmogʻda. Bu esa adabiyotning doimiy rivojlanishda ekanligini koʻrsatadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Toʻxta Boboyev.- Aabiyotshunoslik asoslari - Toshkent- Uzbekiston – 2002
2. Aristotel. Poetika – Toshkent : Adabiyot va sanʼat, 1980
3. Qayumov A. – Adabiyotshunoslik asoslari – Toshkent: Fan, 2010
4. Yoʻldoshev Q. – Badiiy adabiyot nazariyasi – Toshkent: Fan, 2012.